

# ISH BERUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH MEXANIZMINI

## Kirish

Iqtisodiy reformalarning amalga oshirilishi, iqtisodiyotdagi strukturaviy o'zgarishlarning yuz berishi, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanib borishi natijasida korxonalar va tashkilotlarining soni ko'paymoqda. Boshqa mulkchilik shakllari bilan bir qatorda xususiy mulkchilik shaklidagi korxonalar iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida tashkil qilinmoqda va faoliyat yuritmoqda.

Mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda yangi tarmoq sifatida engil avomobilsozlikni paydo bo'lishi va rivojlanishi, kimyo sanoatining rivojlanishi, qishloq xo'jaligida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasining yo'lga qo'yilishi, radio-elektronika tarmog'ining rivojlanib borishi yangi tarmoqlar, yangi ish beruvchilar, yangi mutaxassisliklar paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Tabiiyki, ishlab chiqarishning, jumladan yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi mazkur sohada faoliyat yurituvchi ishchi va xodimlarning hayoti va sog'lig'iga jiddiy xavf soluvchi risklarning miqdori va ko'lamini oshishiga olib keladi.

Yangi tarmoqlar, yangi ish beruvchilar, yangi mutaxassisliklarning paydo bo'lishi, mazkur sohada faoliyat yuritayotgan ishchilarni huquqlarini himoya qilishni talab qiladi. Ish beruvchilarning ishchilar oldidagi fuqarolik javobgarligi o'sib borishi, ishchi va xodimlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalasini dolzarbligini yanada oshirmoqda. Bozor iqtisodi sharoitida ish beruvchilarning ishchilar oldidagi fuqarolik javobgarligini davlat nazorat qiladi. Bir vaqtda iqtisodiyotda Davlatga tegishli korxonalar soni kamayib, xususiy mulkchilikka asoslangan korxonalar soni ortib bormoqda.

Yana bir narsni aytish joizki, yangi ish joylarida ish faoliyati bilan bog'liq turli xil baxtsiz xodislarnin soni ortishi ehtimoli ham oshmoqda. Chunki sanoatning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi yangi, murakkab texnologiyalarni joriy qilishni talab qiladi.

Prezident I.Karimov «Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan takomillashtirish ishlari izchil davom ettirildi – 80 ta ruxsat beruvchi tartib-qoidalar, faoliyatning 15 turini litsenziyalash bekor qilindi, statistika, soliq hisobotini va boshqa hisobotlarni taqdim etish shakllari va davriyligi 1,5-2 baravarga qisqartirildi. Bu 2012 yilda kichik biznesning 23 mingtadan ortiq yangi sub'ektlari tashkil etilishiga ko'maklashdi», deb taakidladi o'z nutqida<sup>1</sup>.

Shu sababli masalasi hozirgi zamon dolzarb mavzusiga aylanmoqda. Bitiruv malakviy ishining mavzusi javobgarlik sug'urtasi sohasida ana shunday dolzarb mavzulardan biriga bag'ishlangan.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi** ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish mexanizmini o'rganib, sug'urtalash tartibini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdir.

**Bitiruv malakaviy ishida qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni** bajarish lozim:

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini sug'urtalashni iqtisodiy va ijtimoiy holatlarga ta'sirini o'rganish;
- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish ob'ekti va sub'ektlarining mohiyatini o'rganish;
- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini sug'urtalashda sug'urta shartnomalarini tuzish jarayonini o'rganish;
- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta summasi, sug'urta mukofotini belgilash tartibini o'rganish o'rganish;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasi, Xalq so'zi, 2013 yil 18 yanvar

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta hodisalarini ko'rib chiqish jarayonini o'rganish;

- sug'urta bozorida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini mavjburiy sug'urta qilish natijasini o'rganish;

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash tartibini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berish.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti** bo'lib sug'urta tashkilotlarining ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bilan bog'liq sug'urta faoliyati hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti** - ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy hamiyati** shundan iboratki, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashning nazariy asoslari, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati bitiruv malakaviy ishida o'rganiladi. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash tartibini takomillashtirish bo'yicha takliflar qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, statistika idoralari, sug'urta kompaniyalarining rasmiy ma'lumotlari, ilmiy risolalarda, maqolalarda keltirilgan ma'lumotlardan foydalaniladi.

**Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi tarkiban kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati talaba tomonidan taklif qilinayotgan tavsiyalar sug'urta tashkilotlarida sug'urta faoliyatini samarali tashkil qilishda as qotadi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy qismida ishberuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tartibi, sug'urtalash jarayoni, sug'urtalash tartibini takomillashtirish yo'llari bayon qilingan.

Xulosa qismida mavzu bo'yicha chiqarilgan yakuniy fikr-mulohazalar yoritilgan. Bundan tashqari talaba ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasini takomillashtirish bo'yich takliflar qilingan.

## **I Bob. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishning nazariy va huquqiy asoslari**

### **1.1 Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashning iqtisodiy va ijtimoiy holatlarga ta'siri**

Fuqarolarning hayot faoliyati davomida ularning mulkiy manfaatlariga turli toifadagi xavf – xatarlar o'z ta'sirini o'tkizadi. Har-bir shaxs o'z mulkiy manfaatlarini xavf soluvchi risklardan himoyalanih vaqtida ular sug'urtaviy munosabatlarga kirishda. Sug'urta jamiyatning barcha a'zolariga turli xil baxtsiz hodisalar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlardan o'zlarini himoya qilish imkoniyatini beradi.

Mulkiy manfaatlarga xavf soluvchi xavf-xatarlar baxsiz hodisalar, tabiat hodisalari, uchinchi shaxslarning bexosdan, yoki ataylab qilgan xatti-harakatlari bilan bog'liqdir. Insonlar o'zlarining mulkiy manfaatlarini himoya qilish uchun sug'uradan foydalanadi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi va jahon iqtisodiy tizimining kengayishi sug'urtaning qayta ishlab chiqarish jarayonini makro va mikro iqtisodiy darajadagi boshqarish borosidagi vazifasi va ahamiyatini oshiradi. Jumladan, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishning ham mehnat resurslarini makro va mikro iqtisodiy darajada himoya qilish vazifasi ortib bormoqda.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish mamlakatda ijtimoiy ishlab chiqarishni barqarorlashtirishni, biznesni va aholini turmush darajasini himoya qilish asosiy vositasi hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazardan, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash mamlakatda iqtisodiy progressni va ishlab chiqarish faolligini qo'llab- quvvatlash asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash nafaqat korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarni ijtimoiy himoya qiladi, balkim

bilvosita yuridik shaxslarni ularga tegishli bo'lgan mol –mulklarni va moliyaviy natijasini himoya qiladi. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash amalga oshirilmaganda edi, ularning faoliyatida yuz beruvchi baxtsiz hodisalar natijasida xodimlarning sog'lig'i va hayotiga etkazilgan zarar ish beruvchi tomonidan qoplab berilishi talab qilinadi. Bu esa yuridik shaxslarning oborot mablag'larining kamayishiga, natijada ularning moliyaviy natijasining yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Agar ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisa natijasida xodim vafot etsa, yuridik shaxslar tomonidan to'lanuvchi qoplama miqdori sezilarli darajada katta miqdorda bo'ladi. Yuridik shaxslar tomonidan to'lanuvchi qoplama miqdori ayrim tashkilotlarning nafaqat moliyaviy ahvolini yomonlashuviga, bir vaqta bankrot holatiga olib kelishi mumkin.

Shu ma'noda, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatida, tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar, professional kassalliklar natijasida yuzaga keluvchi negativ holatlarni oldini oladi va qisqa muddatlarda negativ holatlar asorati bartaraf qilinadi. Natijada korxonalar va tashkilotlarning sh jarayoni va uning parametrlari qayta tiklandi.

Noxush hodisalarning yuz berishi fuqarolarning turmush tarzini yomonlashuviga, ishlab chiqarishni izdan chiqishiga, iqtisodiy rivojlanish orqaga ketishiga olib keladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishning iqtisodiy mohiyati sug'urta, sug'urta faoliyati, mazkur sug'urta turi yordamida sug'urtalanuvchi risklarning mohiyati, xavf-xatarlar, sug'urta hodisasining mazmuni, sug'urta maydoni, sug'urta portfeli, sug'urta agentlari va brokerlari, sug'utalangan shaxs, uchinchi shaxs, naf oluvchi, voris, sug'urta ob'ekti, sug'urta predmeti orqali ochiladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish ham sug'urta faoliyati hisoblanadi. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 5 bandida sug'urta faoliyatiga izzoh berilgan. Sug'urta bozorining professional

ishtirokchilari sug'urta faoliyatining sub'ektlari hisoblanadi. Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari, adjasterlar, aktuariylar, sug'urta syurveyerlari, shuningdek assistans sug'urta bozorining professional ishtirokchilaridir<sup>2</sup>.

“Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonunning 3-moddasida sug'urta tushunchasiga aniq ta'rif berilgan. Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi<sup>3</sup>.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish asosini ham korxonalar va tashkilotlar faoliyatiga xavf soluvchi risklar tashkil qiladi. Risklar grek tilidan kelib chiqqan. Ridsikon, ridisa – qoya ma'nosini bildiradi, italayan tilida risiko – xavf-xatar ma'nosini anglatadi. Risk – bu noxush hodisaning yuz berish ehtimolidir. P.G.Graboviy, L.N., V.V.Shaxovlar riskni zarar keltirish ehtimoli, rejalashtirilgan daromadni olmaslik, deb talqin qilishadilar.

Sug'urta nazariyasida riskning mohiyatini tushuntirishga turli xil yondashuvlar mavjud. Riskning abstrakt va aniq ma'nolari mavjud. Riskning abstrakt ma'nosi shundan iboratki, risk xavf-xatarning meyorini, yuz beruvchi zarar ehtimolli miqdorini bildirsa, riskning sug'urta ob'ekti bilan bevosita bog'liqligi, riskning ro'y berishi sug'urta ob'ektiga qisman yoki to'liq zarar keltirishi uning aniq ma'nosini bildiradi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urtaga olinuvchi risklar o'ziga xos tarkibga ega. O'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotish va mehnatda mayib bo'lish ehtimoli ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta himoyasiga olinuvchi risklar hisoblanadi.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida». - T.: 2002 y., 5 aprel.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 28 may.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida». - T.: 2002 y., 5 aprel.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 28 may.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari to'g'risida"gi 177-son qarori ,1-ilovasiga asosan kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasi - kasbga oid mehnat qobiliyatining ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yuz berguniga qadar bo'lgan, foizlarda ifodalangan, tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi tomonidan aniqlanadigan pasayishi; Mehnatda mayib bo'lish - xodimning kasbga oid mehnat qobiliyatini ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida vaqtincha yoki turg'un yo'qotishi tushuniladi<sup>4</sup>.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta hodisasi deb, sug'urta himoyasiga olinuvchi, favqulotda yuz beruvchi noxush hodisalarni ya'ni, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta hodisasi majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi - ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining amal qilishi davrida xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan xodimning hayoti yoki sog'lig'iga etkazilgan zararining o'rnini qoplash bo'yicha ish beruvchining fuqarolik javobgarligi vujudga kelganligi fakti yoki, annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi deganda annuitetning annuitetlar shartnomasi amal qiladigan davrda joriy to'lov tarzida sug'urta tovonini amalga oshirish sanasigacha yashashi holati tushuniladi. Kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotish deganda, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yuz berguniga qadar bo'lgan, foizlarda ifodalangan, tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi tomonidan aniqlanadigan pasayish tushuniladi. Mehnatda mayib bo'lish esa xodimning kasbga oid mehnat qobiliyatini ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida vaqtincha yoki turg'un yo'qotish holati nisoblanadi.

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari to'g'risida"gi 177-sonli qarori, "Norma" elektron manba.



Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta hodisasining kriteriyalari mavjud: Masalan:

- risk hodisa sifatida ehtimolli xarakterga ega va uning ro'y berishi ob'ektiv xarakterga ega;
- sug'urta riskining ro'y berish vaqti va makoni noma'lum;
- bir -xil toifadagi risklar etarlicha ko'p bo'lishi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish sug'urta faoliyatining qaysi tarmog'iga taaluqliligini belgilash uning iqtisodiy mohiyatini yanada chuqurroq ochadi. Ma'lumki, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 4 bandida sug'urta taramqlari tarkibi belgilab qo'yilgan:

-hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

-umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

-Sug'urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog'liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug'urta sohalari sug'urta turlariga (klasslariga) bo'linadi. Sug'urta turlari (klasslari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi<sup>5</sup>.

Shu ma'noda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bir vaqtda umumiy sug'urta tarmog'i va hayot sug'urta tarmoqlariga mansub bo'ladi.

---

<sup>5</sup>O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida». - T.: 2002 y., 5 aprel.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 28 may.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta maydoni mavjud. Uning mohiyati shundan iboratki, ma'lum davrda sug'urtachi tomonidan sug'urtalash mumkin bo'lgan sug'urta ob'ektlarining maksimal miqdori hisoblanadi. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta maydoniga O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan barcha ish beruvchilar va ularning xodimlari kiradi.

Barcha majburiy sug'urta turlarida jumladan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda "zarar" tushunchasi ishlatiladi. Sug'urta nazariyasida zarar deb sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida sug'urta qildiruvchiga(sug'urtalangan shaxsga) etkazilgan yo'qotishning pul shaklidagi ifodasi tan olinadi. Zararlar moliyaviy, oddiy, shaxsiy, ma'naviy va boshqa ko'rinishlarga ega.

Qiymatda engil o'lchanadigan, material ko'rinishidagi yo'qotilish moddiy zararlar hisoblansa, moliyaviy yo'qotishlar esa sug'urta qildiruvchining nazarda tutgan daromadni, foydani boy berishi hisoblanadi. Zarar ko'rgan shaxsning mulkiy manfaatlariga etkazilgan ziyon, mulkiy yo'qotishlar moddiy ziyon tushunchasini beradi.

Bunda, nazarda tutilmagan xarajatlarning paydo bo'lishi ham sug'urta qildiruvchining daromadiga va foydasiga ta'sir qiladi va u ham moliyaviy yo'qotishlarga olib keladi.

Shaxsiy zararlar bevosita insonning o'zi bilan bog'liq zararlar tushuniladi. Inson va uning shaxsiy qadriyatlariga jismoniy va ma'naviy zararlar etkazish tushuniladi. Zararlarni jazo va jarima zararlaridan farqlash lozim. Jazo va jarima zararlarini shartnomaga asosan aybdor tomoni to'laydi.

Xulosa qilib aytganda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish mamlakatda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish mexanizmini takomillashishiga va ijtimoiy holatni yaxshilanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Ish beruvchilar to'lashi zarur bo'lgan zararni qoplashda yordam berib, ularni

moliyaviy ahvolini barqaror bo'lishiga va mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik zaga kelishiga yaqindan yordam beradi.

## **1.2 Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta munosabatlarining yuzaga kelishining huquqiy asoslari**

Risklar yuz berishi natijasida yuzaga keluvchi zararlarni oldini olish, zararlarni qoplab berish jarayonida sug'urta munosabatlari yuzaga keladi.

Ish beruvchi va sug'urtachi o'rtasida sug'urta munosabatlarining paydo bo'lishini huquqiy asoslari mavjud. Ish beruvchi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tashkil qilishda, o'z korxonasiga ishchi va xodimlarni ishga qabul qilishda amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, ishchilar oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'ladi. Ish beruvchi ishchi va xodimlar xodimlar oldida ayrim majburiyatlarni o'z bo'yniga oladi. Bunday munosabatlarni tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi asosida tartibga solinadi. Mazkur kodeksga asosan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlar qonuniy huquqlarga ega. Aynan bunday qonuniy huquqlarning mavjud bo'lishi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urtaviy munosabatlarni paydo bo'lishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga asosan ishchi va ish beruvchi o'rtasidagi mehnat munosabatlari mehnat shartnomasi asosida o'rnatiladi. Mehnat shartnomasida ishchi va ish beruvchi o'rtasida aniq bir mutaxassislik ishini bajarish yuzasidan o'zaro kelishuvga erishiladi.

Ishchi ishlagan vaqti va mehnat faoliyati uchun ish haqi olish huquqiga ega. Ishchining ish haqi miqdori ish beruvchi bilan kelishgan holda vaqtbay yoki ishbay usulida belgilanadi. Ish beruvchi ishchiga korxonaning moliyaviy

holatidan qat'iy nazar ish beruvchi ishchining mehnat haqini to'lash majburiyatini oladi.

Xodimning mehnat qilish imkoniyatidan asossiz mahrum qilgan hollarda ish beruvchi ishchiga olinishi lozim bo'lgan barcha ish haqini to'lashi talab qilinadi. Asossiz mehnat qilish faoliyatidan mahrum qilish deganda ish beruvchi tomonidan asossiz mehnat shartnomasini bekor qilishi, uning rozilgisiz boshqa ishga o'tkazishi, o'zaro nizolarni o'z vaqtida hal qilmaslik, mehnat daftarchasini o'z vaqtida bermasligi holatlari nazarda tutiladi.

Xodimga etkazilgan ma'naviy zarar ish beruvchi tomonidan pul yoki moddiy shaklda to'lab berilishi zarur.

Har-bir xodim uchun o'z mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun unga ish sharoiti yaratilgan bo'lishi zarur. Ish beruvchi ishchi uchun zarur bo'lgan mehnat qilish sharoitini yaratish majburiyatini oladi. Shu munosabat bilan ish beruvchi ishchilarning doimiy ish sharoitini yaxshilab borish lozim. Ishchining uning mehnat majburiyatiga kirmaydigan, sog'lig'i va hayotiga xavf soluvchi ishni bajarishni talab qilish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 189 moddasiga asosan ish beruvchi:

- ishchining ish majburiyatini bajarishida mayib bo'lishi;
- ish majburiyatini bajarishida kasbiy kasallikka yo'liqishi;
- ish majburiyatini bajarishida sog'lig'iga boshqacha tarzda shkast etishi natijasida kelgan zararlar to'liq hajimda qoplab berilish majburiyatini oladi.

Har-bir ishchi uning sog'lig'iga yoki mulkiga ish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan zararni undirib olish huquqiga ega. Ishchi mehnat faoliyati davomida mehnat layoqatini va boquvchisini yo'qotsa, unga nafaqa to'lanadi.

Yuqori xavf manbaasiga ega bo'lgan ishda ishlovchi ishchining sog'lig'iga ziyon etish xavfi katta. Ish faoliyati davomida uning sog'lig'iga zarar etsa, mayib bo'lsa, vafot etsa, kasbiy kasallikka uchrasa ish beruvchi ishchiga sog'lig'ini tiklash xarajatlarini va zarur bo'lgan kompensatsiyalarni to'lab berish majburiyatini oladi.

Shuningdek ish beruvchi ishchiga yoki uning qaramog'idagilarga mehnat majburiyatini bajarishda yuzaga kelgan zararni, yoki noqonuniy mehnat qilish imkoniyatidan mahrum qilish natijasida etkazgan zararni, ish faoliyat bilan bog'liq holda boquvchisini yo'qotish bilan bog'liq barcha zararni qoplab berish majburiyatini oladi.

Ish beruvchi ishchining ish majburiyatini bajarishida mayib bo'lishi, ish majburiyatini bajarishida kasbiy kasallikka yo'liqishi, ish majburiyatini bajarishida sog'lig'iga shikast etganligi uchun uning oldida fuqarolik javobgarligi mavjud. Ishchining ish faoliyati bilan bog'liq holda mayib bo'lishi, kasbiy kasallikka yo'liqishi ish beruvchining ish hududida ro'y berishi yoki ish joyidan boshqa hududda sodir bo'lishidan qat'iy nazar ish beruvchi ishchi oldida moddiy javobgar hisoblanadi. Jumladan, ishchi ishga borishda va ishdan qaytishda ishchi baxtsiz hodisa natijasida uning sog'lig'iga ziyon etganda ham ish beruvchi tomonidan zarar miqdori ish beruvchi tomonidan qoplab berish majburiyatini oladi.

Ish beruvchining ishchi oldidagi, mehnatda mayib bo'lishi bilan bog'liq fuqarolik javobgarligi moddiy ko'rinishda belgilanadi. Bunda, mayib bo'lishdan oldingi ishchining o'rtacha ish haqi hisob-kitob uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ishchining mehnat qilish layoqatini yo'qotish darajasi, yoki kasbiy kasallik darajasi vrach-mehnat ekspert komissiyasining xulosasi asosida belgilanadi.

Jabrlanuvchiga agar nogiron bo'lsa to'lanuvchi zarar qoplamasi minimal ish haqi miqdorining ellik foizidan kam bo'lmagan miqdorda bo'ladi.

Ishchi mehnat majburiyatini bajarish vaqtida vafot etsa, ish beruvchi zarar miqdorini mehnat layoqatiga ega bo'lmagan shaxslarga va o'n olti yoshga to'lmagan, vafot etgan shaxsning qaramog'ida bo'lgan, yoki vafot etganga qadar uning qaramog'ida bo'lish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga, vafot etganidan so'ng tug'ilgan farzandiga qoplab beradi. Vafot etgan ishchining uch yoshga to'lmagan bolalari, aka-uka, opa-singillari, nevaralini qarovchisi, ishlaydigan ota-onalardan, er-xotinlardan biri zararni oluvchi

da'vogarlardan hisoblanadi. O'n olti yoshga to'lgan, o'n sakkiz yoshga qadar, kunduzgi o'quv bo'limlarida o'quvchi vafot etgan ishchining qarindoshlari ham zarar qoplamasini olishni talab qilishi mumkin.

Mehnat qilish layoqatiga ega bo'lmagan, vafot etgan shaxsning qaramog'ida bo'lgan shaxslarga zarar qoplamasi miqdori vafot etgan shaxsning o'rtacha ish haqi asosida hisoblanadi.

Mehnat qilish layoqatiga ega bo'lmagan, lekin vafot etgan ishchining qaramog'ida bo'lmagan va zarar qoplamasi olish huquqiga ega shaxslarga to'lov sud orqali aniqlansa, sud qarori asos bo'lib xizmat qiladi.

Vafot etgan ishchining qaramog'ida va qaramog'ida bo'lmagan mavjud bo'lsa, dastlab vafot etgan ishchining qaramog'ida bo'lmagan shaxslar uchun beliganuvchi zarar qoplamasi aniqlab olinadi. Ish haqining qolgan qismi hisobidan uning qaramog'ida bo'lgan shaxslarga mos zarar qoplamasi hisoblanadi<sup>6</sup>.

Ishchining sog'lig'iga mehnat majburiyatini bajarish vaqtida, yoki ishga borishda yoki ishdan qaytishda uning sog'lig'iga ziyon etsa, yoki vafot etsa bir karralik yordam miqdori ish beruvchi va profsoyuz tashkiloti o'rtasidagi tuzilgan kollektiv shartnoma asosida amalga oshiriladi. Ishchining sog'lig'iga etkazilgan zarar uchun to'lanuvchi zarara qoplamasining miqdori ishchining bir yillik ish haqi miqdoridan kam bo'lmasligi, ishchining vafot etganda to'lanuvchi bir karralik nafaqa miqdori esa uning olti oylik ish haqi miqdoridan kam bo'lmaydi.

Yuqorida ish beruvchining ishchi oldidagi qonuniy fuqarolik majburiyatlari borligini ko'rib chiqdik. Aynan bunday fuqarolik majburiyatlari ish beruvchi sug'urta tashkiloti bilan sug'urtaviy munosabatga kirshga majbur bo'ladi. Ish beruvchi o'zining ishchilari oldidagi fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qiladi.

Mamlakatimizda fuqarolarni ijtimoiy va iqtisodiy himoya qilish va ish beruvchilarning ishchilar oldidagi fuqarolik javobgarligini majburiy

---

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi."Norma"elektron-huquqiy manbaa(50 b.)

sug'urtalash maqsadida 2009 yil 17 aprelida O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchilarning fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinindi. Mazkur Qonunning qabul qilinishi respublikamizda korxonalar va tashkilotlarda ish bilan band bo'lgan ishchi va xodimlarning hayoti, sog'ligi bilan bog'liq mulkiy manfaatlarini sug'urta himoyasiga olinadi.

Nazariy jihatidan ish beruvchining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta munosabatlari ish beruvchining fuqorolik javobgarligini sug'urtalash jarayonida yuzaga keladi. Sug'urta tashkilotlari sug'urta shartnomasi asosida sug'urta mukofotlari undiradi va sug'urta mukofotlari evaziga sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta qoplamasi to'lab beradi. Sug'urta mukofotlarining va qoplamalarining miqdori "Ish beruvchilarning fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni asosida belgilanadi.

Ish beruvchi va sug'urtachi o'rtasidagi sug'urta munosabatlari sug'urta shartnomasi asosida yuzaga keladi va tartibga solinadi. Sug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi sug'urta shartnomalari sug'urtachi va ish beruvchi o'rtasida tuziladi. Sug'urta shartnomalarida sug'urtachi va ish beruvchining sug'urtalash shartlari asosidagi huquq va majburiyatlari belgilanadi.

Sug'urta shartnomasida belgilangan sug'urta mukofoti ish beruvchining majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qilish yoki annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga majburiy sug'urtalash shartnomasiga yoki annuitetlar shartnomasiga muvofiq to'lashi shart bo'lgan pul mablag'lari hisoblanadi. Sug'urta mukofoti majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta puli asosida hisoblanadi. Majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta puli - sug'urtalovchi majburiy sug'urta qilish shartnomasi doirasida jabrlanuvchiga (naf oluvchiga) etkazilgan zararni qoplash majburiyatining maksimal miqdori hisoblandi. Sug'urta shartnomasida baxtsiz hodisa yuz berishi natijasida ishchining sog'lig'i va hayotiga etkazilgan zararni kompensatsiya qilish uchun qoplov summasi belgilanadi. Qoplov summasi -

annuitetlar shartnomasi muddatidan oldin to'xtatilgan taqdirda annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga to'lanadigan pul mablag'lari hisoblandi. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishga tegishli asosiy pul fondlaridan biri barqarorlashtirish zaxirasi hisoblanadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi sug'urta to'lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun shakllantiriladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasining miqdoriga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

-ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofoti;

-ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha hisobot davrida amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari;

-ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni hisobot davrida amalga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalari sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar);

-boshqa ko'rsatkichlar.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish xarajatlari miqdori hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha hisoblangan sug'urta brutto-mukofotining 30 foizi miqdorida belgilanadi.

Sug'urtalovchi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasini quyidagi tartibda hisoblaydi.

Hisob-kitob qilish bazasi sifatida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo'lgan moliyaviy natija miqdori qabul qilinadi.



Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo'lgan moliyaviy natija hisobot davridagi daromadlar va xarajatlar miqdori o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha daromadlar quyidagilarning yig'indisi sifatida aniqlanadi:

- hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofotlari;

- ishlab topilmagan mukofot zaxirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi va sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining hisobot davrida kamayish tomonga o'zgarishi.

Hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha xarajatlar quyidagilarning yig'indisi sifatida aniqlanadi:

- hisobot davrida sug'urta shartnomalarining muddatidan oldin tugatilishi (shartlarining o'zgartirilishi) munosabati bilan sug'urta qildiruvchilarga qaytarilgan sug'urta mukofotlari (badallari);

- hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalari sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar);

- quyidagilardan iborat bo'lgan hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha joriy sug'urta to'lovlarini ta'minlash xarajatlari:

- ishlab topilmagan mukofot zaxirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi va sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining hisobot davrida ko'payish tomonga o'zgarishi;

- hisobot davrida amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari.

Agar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq daromadlarning 5 foizidan ortiq bo'lsa, barqarorlashtirish zaxirasi hisobot davri oxiriga ortiq summaga qo'shimch shakllantiriladi.

Agar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha xarajatlar summasi daromadlar summasidan ortib ketsa, aksincha barqarorlashtirish zaxirasi hisobot davri oxiriga xarajatlarning daromadlardan ortgan summasiga kamaytiriladi.

Xulosa qilib aytganda ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta munosabatlarining paydo bo'lishini qonuniy asoslari mavjud. Ish beruvchi o'z xodimi oldida qonuniy fuqarolik javobgarligi mavjud. Ish beruvchining ishchi oldidagi fuqarolik javobgarligi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida belgilangan. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta munosabatlari sug'urta mukofotlari hisobidan majburiy sug'urta fondlarini tashkil qilish va fond mablag'laridan foydalanish jarayonida yuzaga keladi.

Keyingi paragrafda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash ob'ekti va sub'ekti masalalari ko'riladi:

### **1.3 Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish ob'ekti va sub'ektlari**

“Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonunning 5 bandida sug'urta faoliyatining sub'ektlariga izzoh berilgan. Qonunning mazkur bandiga asosan sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyatining sub'ektlari hisoblanadi. Jumladan, sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari, adjasterlar, aktuariylar, sug'urta syurveyerlari, shuningdek assistans sug'urta bozorining professional ishtirokchilari hisoblandi<sup>7</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi 177-son qarori bilan qabul qilingan “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari”da majburiy sug'urta shartnomasida ishtirok

---

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida». - T.: 2002 y., 5 aprel.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 28 may.

etuvchi annuitetlar, naf oluvchi, jabrlanuvchi, xodim, ish beruvchi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi, annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchilar va ularning ta'rifi keltirilgan. Mazkur qoidaga asosan:

-annuitent - o'ziga nisbatan annuitetlar shartnomasi tuzilgan va joriy to'lovlar tarzida sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxs;

-naf oluvchi - xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda vafot etgan taqdirda sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan shaxs;

-jabrlanuvchi - o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan sog'lig'iga zarar etkazilgan, sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan xodim;

-xodim - ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida ishlayotgan jismoniy shaxs;

-ish beruvchi - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxs bilan mehnat shartnomasi (kontrakt) tuzgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

-ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi - umumiy sug'urta qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

-annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi - hayotni sug'urta qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs<sup>8</sup>.

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari ham ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda faol ishtirok etishadilar. Ular ham sug'urta tashkilotlarining mazkur sug'urta faoliyatida faol ishtirok etishadilar. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urtachidan tashqari aktuariylar, adjasterlar, syurveeyrlar, sug'urta vositachilari, sug'urta assistanslari qatnashadilar.

---

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari to'g'risida"gi 177-sonli qarori, "Norma" elektron manba.

Adjaster sug'urta xodisasi ro'y berganda sug'urtalanuvchining e'tirozni tartibga soladigan sug'urta sohasidagi mutaxassis. Adjasterlar jismoniy yoki xuquqiy shaxs bo'lishi mumkin. Uning asosiy funksiyasiga sug'urta xodisasini ro'y berish sabablarini o'rganish, tahlil qilish va tahlil natijalari bo'yicha sug'urta kompaniyasiga ekspert xulosasini tayyorlaydi.

Aktuariylarning ham ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda o'z o'rniga ega. Ular sug'urta tariflarini hisob-kitoblarlarini, risklarning ro'y berish ehtimollarlarini yaxshi bilishadilar. Xususan, aktuariylar sug'urta tariflarini hisoblash va metodologiyasini ishlab chiqish, uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha sug'urta zahiralarini shakllantirish bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirishadilar.

Syurveyer sug'urta qildiruvchilarning mol-mulkni ko'rikdan o'tkazadilar va syurveyerning xulosasi asosida sug'urta shartnomasini tuzish to'g'risida sug'urtachining qarori qabul qiladi.

Sug'urta assistanslari sug'urtachiga sug'urta sharnomalarini bajarish borasida yordam beradilar. Sug'urta assistanslari yuridik va jismoniy shaxs bo'lishlari mumkin.

Assistans xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar sug'urtalanuvchilarga hamda sug'urtalovchilarga texnik, tibbiy va boshka xizmatlar, moliyaviy yordamlar ko'rsatadilar.

Assistanslar sug'urtalovchi bilan tuzilgan shartnoma asosida o'z faoliyatini amalga oshiradilar. Assistans xizmatlariga sug'urtalovchilar tomonidan haq to'lanadi.

Assistans xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar assistans xizmatini ko'rsatishda qonuniy xukuklari mavjud:

- sug'urtalovchilar bilan assistans xizmatlari ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish;
- assistans xizmatlari ko'rsatish uchun zarur bo'lgan barcha axborotlar takdim etilmagan takdirda assistans xizmatlari ko'rsatishni rad etish;
- mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb etish;

- assistans xizmatlari ko'rsatish yuzasidan tuzilgan shartnomaga asosan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta vositachilarining faol ishtirok etishi talab qilinadi. Ular sug'urta faoliyatida vositachilik vazifasini bajaradi.

Sug'urta agentlari va brokerlar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda o'z o'rnini mavjud. Sug'urta agentlari sug'urtalovchining nomidan va uning topshirig'i bo'yicha sug'urta shartnomasini tuzadilar. Ular yuridik yoki jismoniy shaxslar ko'rinishida tashkil qilinishi mumkin.

Sug'urta agentlari o'z faoliyatini amalga oshirishda belgilangan hukuklarga ega va ular quyidagilardan iborat:

- sug'urtalovchi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida, vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

- sug'urta tavakkalchiligini baholashda, sug'urta to'lovini to'lashda shuningdek, sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'liq hajmda va o'z vaqtida to'lanishida zarur yordam berish;

- sug'urtalovchidan litsenziyani ko'rsatishni talab qilish;

- sug'urtalovchining ustav kapitali, qabul kilingan majburiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

- sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish;

- sug'urtalanuvchidan qabul qilib olinayotgan tavakkalchiliklar to'g'risida umumiy bo'lgan manbalardan tavakkalchilik va sug'urtalanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash.

Sug'urta agenti agentlik faoliyati bilan shug'ullanishida ularning zimmalariga shartnomaviy majburiyatlar yuklangan:

- sug'urta shartnomasi tuzishda va sug'urta tovonini to'lashda barcha hujjatlarni to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirishga yordam berish;

- sug'urta tariflari, sug'urtalash shartlari, litsenziya mavjudligi, ustav fondi hajmi, sug'urta zaxiralari, sug'urta majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar to'g'risidagi axborotga ega bo'lish;

- sug'urta shartnomasini rasmiylashtirishda sug'urtalanuvchi to'g'risidagi imkoni bo'lgan axborotlarga ega bo'lish;

- sug'urta tavakkalchiligini pasaytirish va sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini kamaytirishga yo'naltirilgan anik chora-tadbirlarni amalga oshirish choralarini taklif etish;

- sug'urta xujjatlarida nazarda tutilgan rekvizitlarni o'chirib yozishga, tozalashga va tuzatishlarga yo'l ko'ymaslik;

- sug'urta shartnomalari va olingan sug'urta mukofoti summalari hisobini yuritish;

- sug'urta xujjatlarining saqlanishini ta'minlash;

mijozning tijorat sirini mahfiylikini saqlash;

- tavakkalchilik shart-sharoitlari jiddiy ravishda o'zgarishiga tegishli har kanday axborot o'z vaqtida olinishini, shuningdek sug'urta e'tirozlari paydo bo'lganda va ularni tartibga solish jarayonida sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida axborotlarning o'z vaktida va sifatli ayirboshlanishini ta'minlash.

Sug'urta brokerlar sug'urta agentlaridan farqli ravishda, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olinadi. Ular sug'urtalanuvchining nomidan va uning topshirig'i bo'yicha sug'urtachi bilan sug'urta shartnomasi tuzadilar. Sug'urta brokerlari faqat yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladilar.

Sug'urtalash brokeri faoliyati boshqa faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Qayta sug'urtalash brokeri kayta sug'urtalash shartnomasini tuzish va bajarishni tashkil etish faoliyatini amalga oshiradilar. O'lar ham yuridik shaxs maqomida bo'ladilar.

Sug'urtalash va qayta sug'urtalash brokerlari sug'urtalovchilarning aktsiyalariga ega bo'lishga haqli emaslar.

Sug'urtalash va qayta sug'urtalash brokerlari ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda quyidagi xuquqlarga ega:

- o'z vakolatlari doirasida sug'urtalash vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

- sug'urtalovchidan litsenziya to'g'risidagi, ustav fondi hajmi, sug'urta zaxiralari va qabul qilingan majburiyatlar to'g'risidagi, shuningdek sug'urtachining to'lovga qodirligi va moliyaviy barkarorligining boshqa ko'rsatkichlari haqida ma'lumot olish;

- ekspert va maslahat xizmatlari ko'rsatish.

Sug'urtalash va qayta sug'urtalash brokerlarining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- sug'urta faoliyati to'g'risidagi konun xujjatlari talablariga rioya qilish;

- o'z mijozlariga sug'urta shartnomasi tuzish va bajarish bo'yicha to'lik, ishonchli va xolisona axborotni takdim etish;

- mijozning tijorat siri va boshqa sirini tashkil etadigan ma'lumotlarni sir tutish;

- sug'urta shartnomalarini tuzishda mustakillik va betaraflikka rioya qilish.

Sug'urta brokeri o'zi bilan sug'urtalanuvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida brokerlik xizmatlarini ko'rsatadi.

Sug'urta brokerlari sug'urtalovchilar tomonidan taklif etilgan dasturlar va sug'urtalash shartlarini ularning samaradorligi yuzasidan tahlil qilishadilar, eng maqbul variantni tanlab oladilar.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish amaliyoti tartibi keyingi bobda ko'rib chiqiladi.

## **II Bob. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash tartibi**

### **2.1 Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi va uni tuzish**

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi ommaviy xarakterga ega. U ish beruvchi hamda sug'urta qiluvchi o'rtasida bir yil muddatga tuziladi. Agar ish beruvchi o'z faoliyatini bir yildan kam muddatda amalga oshirgan hollarda, sug'urta shartnomasining muddati ish beruvchi faoliyatni amalga oshirish muddatiga mos holda tuziladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 52 moddasi, 2009 yil 17 aprelida qabu qilingan, O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari to'g'risida"gi 177-son qarori 1-ilovasiga asosida tuziladi. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi yozma shaklda bitiladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasida sug'urtachi va sug'urta qildiruvchi o'rtasidagi huquq va majburiyatlar kelishuviga erishiladi. Sug'urta shartnomasining asosini sug'urtalash tartibi tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 914 – moddasiga asosan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchi bilan sug'urtaning ushbu turini tartibga soladigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shartlarda shartnoma tuzishi shart<sup>9</sup>. Sug'urta shartnomalarini tuzishda ish beruvchiga majburiy sug'urta qilishni amalga oshiradigan sug'urtalovchini va annuitet shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchini

---

<sup>9</sup>O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi -T.:O'zbekiston Respublikasi Adl.vaz., 2003.-496 b.



tanlash huquqi beriladi. O'z navbatida sug'urtalovchi o'ziga yozma ariza bilan murojaat qilgan va tegishli hujjatlarni taqdim etgan ish beruvchiga majburiy sug'urta qilish shartnomasini tuzish haqidagi taklifini qabul qiladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda Majburiy sug'urta qilish shartnomasini tuzish uchun ish beruvchi sug'urtalovchiga majburiy sug'urta qilish shartnomasini tuzish to'g'risidagi ariza, ish beruvchi - jismoniy shaxs pasportining yoki uning shaxsini tasdiqlaydigan boshqa hujjatining nusxasi, ish beruvchining (yuridik shaxslar uchun) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxalarini taqdim qiladi.

**Sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim qilinuvchi hujjatlar 1-jadval<sup>10</sup>**

/r	Sug'urta shartnomasini tuzishda taqdim qilinuvchi hujjatlar nomi	Sug'urta qildiruvchining huquqiy maqomi
	Majburiy sug'urta qilish shartnomasini tuzish to'g'risidagi ariza	Sug'urta qildiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar
	Jismoniy shaxs pasportining yoki uning shaxsini tasdiqlaydigan boshqa hujjatining nusxasi (fotosurati va ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi oxirgi yozuv mavjud bo'lgan betlari)	Sug'urta qildiruvchi jismoniy shaxs bo'lganda
	Ish beruvchining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi	Sug'urta qildiruvchi yuridik shaxs bo'lganda

Ish beruvchi sug'urtalovchiga to'liqligi va haqqoniy ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etadi va ma'lumotlar to'g'riligi uchun javobgar hisoblanadi. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomalarining shakli va uning muhim bo'lgan shartlariga qo'yilgan talablar

<sup>10</sup>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari to'g'risida"gi 177-sonli qarori, "Norma" elektron manba.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 927, 929 – moddalarida belgilangan.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomalarining muhim bo'lgan shartlariga quyidagilar kiradi:

- sug'urta ob'ekti bo'lgan mulkiy manfaat to'g'risida;
- yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi)ning xususiyati to'g'risida;
- sug'urta puli miqdori to'g'risida;
- sug'urta tovonni miqdorini aniqlash tartibi to'g'risida, agar shartnomada uni sug'urta pulidan oz miqdorda to'lash mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa;
- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati to'g'risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.
- sug'urtalangan shaxs to'g'risida;
- sug'urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi)ning xususiyati to'g'risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomalarida ish beruvchi va sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari bayon qilinadi.

Ish beruvchi majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha quyidagi huquqlarga ega:

- sug'urtalovchidan majburiy sug'urta qilish shartnomasining shartlarini tushuntirib berishni talab qilish;
- sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;
- yillik ish haqi miqdori kamaygan taqdirda, sug'urta mukofotining yillik ish haqi miqdorining kamayishiga va majburiy sug'urta qilish shartnomasining tugallanmagan davriga mutanosib qismini olish.

Sug'urta shartnomasida ish beruvchining majburiy sug'urta bo'yicha majburiyatlari aniq bayon qilinadi. 2- jadvalga qarang.

**Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda ish beruvchining majburiyatlari**

/r	Ish beruvchining majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlari
	majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha, kelishilgan shartlar asosida va tartibda sug'urta mukofotini to'lashi
	yillik ish haqi miqdori o'zgargan paytdan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda xabar qilishi
	ish beruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat turlarining xavflilik darajasi o'zgargan paytdan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda bildirishi va zarur bo'lgan hollarda, qo'shimcha hisoblab chiqarilgan sug'urta mukofotini to'lashi
	xodimlarni majburiy sug'urta qilish shartnomasi shartlari bilan tanishtirish
	sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni jabrlanuvchi yoki naf oluvchi yozma shakldagi ariza bilan murojaat qilgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni mobaynida taqdim etishi
	ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yuz berganligi o'ziga ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda bildirishi
	asossiz ravishda ortiqcha to'langan sug'urta to'voni haqida sug'urtalovchiga xabar qilishi va ortiqcha to'langan mablag'larni sug'urtalovchiga qaytarish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'rishi

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta qiluvchiga ham qonuniy huquqlar ajratilgan va bu huquqlar sug'urta shartnomasida o'z aksini topadi. Sug'urta qildiruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirishda ishtirok etish va zarur bo'lgan hollarda tegishli ekspertlarni jalb etish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisaga doir axborotni tekshirish, sug'urta mukofotini aniqlash uchun sug'urta xavfini baholash, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish yuzasidan tavsiyalar berish huquqlariga ega,

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari to'g'risida"gi 177-sonli qarori, "Norma" elektron manba.

Sug'urtalovchining ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomalarini bajarish bo'yicha majburiyatlari quyidagi jadvalda keltirilgan. 3-jadvalga qarang.

**3-jadval<sup>12</sup>**

**Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi bo'yicha sug'urtachining majburiyatlari.**

/r	Sug'urta qildiruvchining sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlari
	majburiy sug'urta qilish shartnomasi shartlari bilan ish beruvchini tanishtirishi
	ish beruvchi va (yoki) jabrlanuvchi yoxud naf oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning mahfiyligini ta'minlashi
	sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, murojaat etganidan keyin o'n besh ish kunidan kechiktirmay rad etish sabablarini yozma shaklda xabar qilishi
	hujjatlar taqdim etilgan sanadan e'tiboran o'n ish kunidan kechiktirmay qaror qabul qilishi va sug'urta tovonini to'lash
	o'zi almashtirilgan taqdirda bu haqda ish beruvchiga yozma shaklda xabar berish

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi bo'yicha jabrlangan ishchi sug'urta hodisasi yuz berganda uning hayoti va sog'lig'iga etgan ziyonni tiklash xarajatlarini talab qiladi. Jabrlangan ishchi ish beruvchiga yoki annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga sug'urta tovonini to'lash haqida yozma shakldagi ariza bilan murojaat etati va belgilangan shartlar asosida va tartibda sug'urta tovonini oladi. Jabrlangan ishchi sug'urta tovonini to'lashni talab qilish huquqiga ega. Bundan tashqari, jabrlangan ishchi majburiy sug'urta qilish shartnomasining yoki annuitetlar shartnomasining shartlari to'g'risida ish beruvchidan yoki annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchidan bepul axborot olish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani tekshirishda zaruriyat bo'lganda, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi vakillarini, o'zining

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari to'g'risida"gi 177-sonli qarori, "Norma" elektron manba.

ishonchli shaxsini jalb etgan holda ishtirok etish, sug'urtalovchi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni olish huquqlariga ega.

Jabrlangan ishchining qarindoshlari bo'lgan naf oluvchiga ham sug'urta shartnomasi bo'yicha belgilangan huquqlar ajratilgan. Naf oluvchining huquqlari quyidagi jadvalda keltirilgan. 4- jadvalga qarang.

#### 4-jadval<sup>13</sup>

#### Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda naf oluvchining huquqlari

/r	Naf oluvchining huquqlari
	sug'urta tovonini olish haqidagi talab bilan ish beruvchiga yoki sug'urtalovchiga murojaat etish
	sug'urtalovchi va (yoki) annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchidan sug'urta tovonini olish
	sug'urtalovchidan majburiy sug'urta qilish shartnomasining shartlari to'g'risida hamda annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchidan annuitetlar shartnomasi shartlari haqida bepul axborot olish
	xodim o'z mehnat vazifalarini bajarayotganda vafot etganligi haqida ish beruvchiga xabar qilish
	ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani tekshirishda ishtirok etish, zarur hollarda kasaba uyushmasi vakillarini yoki o'zining ishonchli shaxsini jalb etgan holda ishtirok etish

Sug'urta shartnomasi asosida ish beruvchi sug'urtachiga shartnomada belgilangan sug'urta mukofotini belgilangan muddatda to'laydi. Majburiy sug'urta qilish polisi ish beruvchiga sug'urtalovchining hisob raqamlariga majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti kelib tushgan kundan keyingi uch ish kunidan kechikmay taqdim qilinadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash sug'urta polisi blankasi qat'iy hisobda turadigan hujjat hisoblanadi. Sug'urta polisi blankasi sug'urtalovchining buyurtmasi bo'yicha, bosmaxona usulida "Davlat belgisi" davlat ishlab chiqarish birlashmasida tayyorlanadi.

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari to'g'risida"gi 177-sonli qarori, "Norma" elektron manba.

Sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda dublikat eng kam oylik ish haqi miqdorining ko'pi bilan 10 foizi miqdorida to'lagan kundan boshlab ikki kun muddatda beriladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasining amal qilishi muddatidan oldin ham tugatilganda sug'urta mukofotining bir qismi to'langan sug'urta tovonni summasiga va shartnoma amal qilishining kunlar hisobidagi qolgan muddatiga mutanosib ravishda qaytarib beriladi. Quyidagi hollarda u muddatidan oldin to'xtatiladi:

- ish beruvchi - yuridik shaxs tugatilganda yoki qayta tashkil etilganda;
- ish beruvchi - jismoniy shaxs vafot etganda;
- majburiy sug'urta qilish shartnomasi sud qaroriga ko'ra haqiqiy emas deb e'tirof etilganda.

Jabrlanuvchi ishchining mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog'lig'iga zarar etganda, o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda vafot etgan hollarda, sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan naf oluvchiga joriy to'lovlar tarzida bir yildan ortiq muddat uchun sug'urta tovonini to'lash majburiyatini paydo bo'lganda annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi bilan annuitetlar shartnomasi tuziladi.

Annuitetlar shartnomasi jabrlanuvchi ishchi mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasi belgilangan muddatga yoki naf oluvchi sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'ladigan muddatga mos ravishda tuziladi. Sug'urta shartnomasini tuzishda tegishli hujjatlar taqdim qilinadi. 5-jadvalga qarang.

#### **5-jadval<sup>14</sup>**

#### **Annuitetlar shartnomasi tuzish uchun ish beruvchi annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga taqdim qilinuvchi hujjatlar**

	annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga taqdim qilinuvchi hujjat nomi
--	---

<sup>14</sup>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari to'g'risida"gi 177-sonli qarori, "Norma" elektron manba.

/r	
	annuitetlar shartnomasini tuzish to'g'risidagi ariza
	ish beruvchi pasportining yoki uning shaxsini tasdiqlaydigan boshqa hujjatining nusxasi (jismoniy shaxsning ish beruvchisi uchun)
	yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi
	jabrlanuvchi (naf oluvchi)ning pasporti yoki uning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatining nusxasi
	ish beruvchining ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatlariga ko'ra etkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi buyrug'ining nusxasi

Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta polisi ish beruvchiga sug'urta mukofoti tushgan kundan keyingi uch ish kunidan kechikmay beriladi.

Annuitetlar shartnomasi bo'yicha ish beruvchi sug'urtalovchidan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish, qoplov pulini talab qilish huquqlariga ega hisoblanadi.

Bir vaqtda, ish beruvchi annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash, sug'urta polisini annuitentga berish, annuitetni annuitetlar shartnomasi bo'yicha huquqlar va majburiyatlar bilan tanishtirish, annuitentni annuitet shartnomasi shartlarining o'zgarganligi to'g'risida xabardor qilish, annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchini annuitetlar shartnomasi tuzish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarning o'zgarganligi haqida xabardor qilish majburiyatlariga ega.

Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi ish beruvchidan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish, joriy to'lovlar tarzida sug'urta tovonini olish yuzasidan annuitent huquqining mavjudligini tekshirish, to'lovlarni olish huquqini yo'qotgan bo'lsa joriy to'lovlar to'lashni rad etish vakolatlariga ega.

Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi ish beruvchiga sug'urta polisini annuitetlar sug'urta shartnomasi asosida beradi va joriy to'lovlar tarzida sug'urta tovonini amalga oshirish majburiyatini oladi.

Annuitetlar shartnomasi ayrim hollarda muddatidan oldin to'xtatilishi mumkin. Masalan, sug'urta mukofoti annuitetlar shartnomasida belgilangan

muddatda va miqdorda to'lanmaganda; annuitent annuitet shartnomasi amal qilgan davrda vafot etganda.

Xulosa qilib aytganda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash jarayoni sug'urta shartnomasini tuzishdan boshlanadi. Sug'urta shartnomasida tomonlarning huquq va majburiyatlari, shartnomaning muhim elementlari aks etadi. Sug'urta shartnomalari asosida sug'urta polisi rasmiylashtiriladi. Qoplov puli bir yildan ortiq muddatni tashkil qilgan hollarda annuitetlar shartnomasi tuziladi. Sug'urta mukofotlari va summasi ham sug'urta shartnomasida belgilanadi. Keyingi paragrafda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta summasini va mukofotini belgilash tartibi ko'rib chiqiladi.

## **2.2 Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta summasi va mukofotini belgilash tartibi**

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta summasini belgilash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi 177-son qarori bilan qabul qilingan "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari"da belgilangan.

Sug'urta summasining miqdori korxonada ishlovchi xodimlar soni, xodimlarning o'rtacha ish haqi miqdori, xodimning ish faoliyati muddatlariga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi 177-son qarori bilan qabul qilingan "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari"ga asosan majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta summasi miqdori quyidagicha belgilanadi<sup>15</sup>:

---

<sup>15</sup>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari to'g'risida"gi 177-sonli qarori, "Norma" elektron manba.



-majburiy sug'urta qilish shartnomasi tuzilgan sanadagi holatga ko'ra faoliyatini bir yildan ortiq amalga oshirib kelayotgan ish beruvchi uchun -majburiy shartnoma tuzilgan oydan oldingi o'n ikki oy uchun ish beruvchi barcha xodimlarining bir yillik ish haqi miqdorida;

-o'z faoliyatini yangitdan amalga oshirayotgan ish beruvchi uchun -majburiy sug'urta qilish shartnomasi tuzilgan oydan keyingi o'n ikki oy uchun ish beruvchi barcha xodimlarining bir yillik ish haqi miqdorida. Bunda yillik ish haqi birinchi oydagi ish haqi miqdorini o'n ikkiga ko'paytirish orqali hisoblab chiqariladi;

-faoliyatini bir yildan kam bo'lgan muddatga amalga oshiruvchi ish beruvchi uchun - ish beruvchi barcha xodimlarining ish beruvchining mazkur faoliyati amalga oshiriladigan muddatdagi ish haqi miqdorida.

Xodim korxonada ish faoliyati davomida unga belgilangan ish haqi o'zgarishi mumkin. Bunday hollarda shartnomaga sug'urta puli va sug'urta mukofoti qismiga yozma ravishda qo'shimcha kelishuv tuzish orqali o'zgartirishlar kiritiladi. Sug'urta shartnomasi tuzilgan sanada amalda bo'lgan sug'urta tarifi bo'yicha sug'urta mukofotini qayta hisob-kitob qilish qolgan sug'urta davri va sug'urta puliga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

Sug'urta qilish shartnomasi amaldagi vaqtda sug'urta tariflarining o'zgarishi sug'urta tariflari bo'yicha to'langan sug'urta mukofotining o'zgarishiga olib kelmaydi.

Sug'urta mukofotini hisoblash uchun birlamchi hujjatlar talab qilinadi. Sug'urta mukofotini hisoblash uchun majburiy sug'urta qilish shartnomasi tuzish to'g'risidagi arizada ish beruvchi ko'rsatgan ma'lumotlardan zarur bo'ladi.

Sug'urta shartnomasi tuzilgandan keyin arizada ish beruvchining noto'g'ri va yoki xato ma'lumotlar ko'rsatganligi aniqlangan hollarda sug'urta mukofoti miqdori sug'urta shartnomasi tuzilgan vaqtda amalda bo'lgan ish beruvchi faoliyat turlarining xavflilik darajasi tavsifiga mos holda o'zgartiriladi.

Sug'urta mukofoti ish beruvchi tomonidan, shartnoma tuzilgan sanadan boshlab besh ish kuni mobaynida bir yo'la to'lanadi.

Sug'urta mukofoti naqd pul bilan to'lanishi mumkin. Bunday hollarda, sug'urtalovchi tomonidan pul mablag'lari qabul qilib olingan sana to'lov sanasi hisoblanadi. Sug'urta mukofoti naqd pulsiz to'langanda pul mablag'larining sug'urtalovchi hisob raqamiga tushgan sanasi sug'urta mukofoti to'langan deb topiladi.

Ish beruvchining hisob raqamidagi pul mablag'lari etarli bo'lmagan hollarda, navbatsiz ko'rinishida, sug'urta mukofotini to'lash ish beruvchining ishlab chiqarish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlariga mo'ljallangan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi amaldagi vaqtda sug'urta tovonini to'lagan bo'lsa, sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan sug'urta puli to'langan sug'urta tovonni summasiga kamaytiriladi. Mos ravishda, to'langan sug'urta tovonni summasiga hamda sug'urta shartnomasining qolgan amaldagi vaqtiga mutanosib ravishda sug'urta mukofotini etti ish kuni mobaynida qo'shimcha ravishda to'lashi talab qilinadi.

Sug'urta tarifining tarkibida 70% netto-stavka tashkil qilsa, 30 % ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish xarajatlari tashkil qiladi. Oltinchi jadvalga qarang.

**6-jadval**

**Ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tarif stavkasi tarkibi<sup>16</sup>.**

t/r	Ko'rsatkichlar	%
1	Sug'urta mukofotining brutto-stavkasi	100

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari to'g'risida"gi 177-sonli qarori, "Norma" elektron manba.

2	Netto-stavka (ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha joriy sug'urta to'lovlarini ta'minlashga mo'ljallangan brutto-stavkaning bir qismi)	70
3	Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish xarajatlari	30
4	shu jumladan, sug'urta hodisalari boshlanishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha zaxiraga ajratmalar	5

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tarifini hisoblashda bazaviy stavka miqdoridan foydalaniladi. Illiy bazaviy stavka miqdori ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta summasining yillik (TB) 0,1 foizi miqdori olinadi. Illiy bazaviy stavka miqdori barcha ish beruvchilar va sug'urtalovchilar uchun yagona hisoblanadi. Sug'urta tariflarining miqdori ish beruvchilarning faoliyat turi, ish faoliyatining xavflilik darajasiga qarab o'zgaradi. Ish beruvchilarning ish faoliyatining xavflilik darajasiga qarab koeffitsentlar belgilangan. Ish faoliyat turlari 20 ta klasslarga bo'linib 20 ta koeffitsentlar belgilangan.

Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta pulini belgilashning o'ziga xos jihatlari mavjud.

Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta puli jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga o'rni qoplanishi lozim bo'lgan zarar miqdorida belgilanadi.

Zarar o'rnini qoplash muddati noaniq bo'lsa, sug'urta pulini hisoblash uchun shartnoma imzolangan vaqtda O'zbekiston Respublikasida belgilangan aholi umrining o'rtacha davom etish ko'rsatkichidan foydalaniladi. Annuitent o'rtacha umr ko'rish muddatidan ortiq davrda hayot bo'lishi mumkin. Bunday hollarda, uning umr ko'rish davrining qolgan davrida ko'rilgan zarar ish beruvchi tomonidan qoplanadi.

Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti annuitetlar shartnomasida belgilangan sug'urta puliga teng bo'ladi. Sug'urta mukofoti ish beruvchi tomonidan sug'urtalashning butun davri uchun to'lanadi. U annuitet shartnomasi tuzilgan muddatdan boshlab besh ish kuni mobaynida bir yo'la to'lanadi. O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqining miqdori o'zgarganda, zararni undirish puli eng kam oylik ish haqining oshishiga proportsional ravishda ko'payadi. Bunda ko'rilgan zararni undirishning ko'paytirilgan summasi ish beruvchi tomonidan qo'shimcha ravishda to'lanadi.

Xulosa qilib aytganda, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta summalari korxonalarda ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha ish haqining miqdoriga, ishga qachon kirganligiga ko'proq bog'liq. Sug'urta tariflarini hisoblashda yillik bazaviy tarif belgilanib, unga ish beruvchining ish faoliyati xavflilik darajasiga qarab koeffitsentlar ko'paytiriladi. Ya'ni sug'urta tariflarini belgilashda riskning ro'y berish ehtimoli va xavflilik darajasi inobatga olinadi.

Keyingi paragrafda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini sug'urtalashda sug'urta hodisalarini ko'rib chiqish jarayonini o'rganamiz.

### **2.3 Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta hodisasini ko'rib chiqish jarayoni**

Ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani tekshirish yakunlariga ko'ra sug'urtalovchiga sug'urta to'voni talabidan iborat bo'lgan yozma shakldagi ariza bilan murojaat qilgandan e'tiboran sug'urta da'vosi bildirilgan hisoblanadi. Sug'urta hodisasi yuzasidan da'vo arizasiga sug'urta hodisasi yuz berganligini tasdiqlovchi, xodimning ish faoliyatiga oid ayrim hujjatlarni taqdim qiladi. Xususan quyidagi hujjatlarni sug'urtachiga beradi:

-ish beruvchining ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatlariga ko'ra etkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risida buyrug'ining nusxasi;

-xodimning yoki naf oluvchining ish beruvchining nomiga yozilgan arizasining nusxasi. Arizada etkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi talabi ko'rsatiladi.;

-sug'urta hodisasi yuz berguniga qadar xodim olgan o'rtacha oylik yoki yillik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

-mehnat shartnomasining (kontraktning) nusxasi;

- xodimning kasb kasalligi to'g'risidagi tibbiy xulosa;

-ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa sodir bo'lganligini va xodim uchun uning oqibatini tasdiqlovchi hujjatlar.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa maxsus tekshirish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi va tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasining xulosasi mavjud bo'ladi. Agar sug'urta hodisasi yuzasidan o'zaro nizolar yuzaga kelsa - sudning qarori talab qilinadi.

Sug'urta hodisasi natijasida xodim vafot etgan taqdirda xodimning vafot etganligi to'g'risidagi guvoohnoma notarial tartibda tasdiqlanadi va sug'urtachiga taqdim qilinadi. Sug'urtachiga taqdim qilinuvchi hujjatlar tarkibida naf oluvchining zararining o'rnini qoplanishiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlar ham bo'lishi zarur.

Hujjatlarni qabul qilib olingandan keyin, sug'urtalovchi ish beruvchiga olingan hujjatlarning to'liq ro'yxatini va ular qabul qilib olingan sanani ko'rsatgan holda ma'lumotnoma beradi.

Zarur hollarda, sug'urtalovchi huquqni muhofaza qilish organlaridan, sudlardan, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya va boshqa tashkilotlardan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa bilan bog'liq hujjatlarni va xulosalarni olishi mumkin. Shu ma'noda sug'urtachi jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga etkazilgan zararining sabablarini, holatini va miqdorini mustaqil ravishda o'rganish huquqi mavjud.

Barcha zarur hujjatlar asosida sug'urtalovchi taqdim etilgan sanadan boshlab o'n ish kunidan kechikmay sug'urta hodisasini tan olish to'g'risida qaror qabul qiladi va sug'urta tovonini to'laydi.

Sug'urta hodisasini tan olish va sug'urta tovonini miqdorini aniqlash sug'urtalovchi tomonidan, ish beruvchi taqdim etgan hujjatlarni o'rganish, shuningdek ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani tekshirish uchun jalb etilgan ekspertlarning tegishli xulosalari asosida amalga oshiriladi.

Sug'urta hodisasi tan olinganligini tasdiqlovchi dalolatnoma ikki nusxada tuziladi. Bir nusxasi sug'urtalovchiga, ikkinchisi - ish beruvchi ga beriladi.

Sug'urta tovonini bir yildan ko'p muddat uchun to'lash bilan bog'liq sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi ishtirokida tuziladi. Sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma har qaysi tomon uchun bir nusxadan - uch nusxada tuziladi. Mos ravishda, sug'urta dalolatnomasi sug'urtalovchi, ish beruvchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi tomonidan imzolanadi.

Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinganligi to'g'risida ish beruvchiga ariza bilan yozma murojaatidan keyin o'n besh ish kunidan kechikmay asosli xabar qilinadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta tovonini etkazilgan zarar miqdorida, lekin sug'urta puli miqdoridan ko'p bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Sug'urta hodisasi natijasida bir – nechta ishchi jarohat olsa, yoki sog'lig'iga ziyon etsa va sug'urta shartnomasida belgilangan sug'urta pulidan ortiq bo'lsa, sug'urta tovonini har bir jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga uning etkazilgan zarar umumiy miqdoridagi ulushiga mutanosib ravishda bo'linadi. Bunday holatda ham jami to'langan sug'urta tovonini miqdori sug'urta shartnomasida belgilangan sug'urta pulidan ko'p bo'lmasligi lozim.

Sug'urta tovonini belgilashda jarohatning xarakteriga qarab uni hisoblash usuli tanlanadi.

Jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lganda, sug'urta hodisasiga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobida, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq har oylik to'lov sifatida belgilanishi mumkin. Kasb kasalligiga chalinish holatida sug'urta hodisasiga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobida belgilanadigan har oylik to'lov sifatida belgilanishi mumkin.

Ishchi vafot etgan hollarda marhumning o'rtacha oylik ish haqi miqdoridagi, uning o'ziga va qaramog'ida bo'lgan, lekin etkazilgan zararining o'rni qoplanishiga haqli bo'lmagan, mehnatga qobiliyatli shaxslarga to'g'ri keladigan ulush chegirib tashlangan holdagi har oylik to'lov sifatida belgilanadi.

Sug'urta tovoni jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga bir yo'la beriladigan nafaqa to'lovi sifatida ham belgilanishi mumkin.

Xodim vafot etgan taqdirda majburiy sug'urta qilish shartnomasida belgilangan eng kam oylik ish haqining 3 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdordagi dafn etish xarajatlari ham to'lab beriladi.

Ish beruvchining qo'shimcha xarajatlari sug'urtachi tomonidan qoplab beriladi.

Sug'urta shartnomasi amaldagi muddatda eng kam oylik ish haqi miqdori oshishi mumkin. Minimal ish haqining oshgan qismi xodimning hayoti yoki sog'lig'iga zarar etkazilganligi munosabati bilan zararining o'rmini qoplash uchun belgilanuvchi summa ham mos ravishda oshadi. Bunda zararining shartnoma tuzishda mavjud bo'lgan va shartnoma amaldagi vaqdagi minimal ish haqilari o'rtasidagi farqi ish beruvchi tomonidan qo'shimcha tarzda to'lanadi.

Ayrim sug'urta hodisalari sug'urta shartnomasi amaldagi vaqtda ro'y bermay, shartnoma muddati tugugundan keyin ro'y berishi mumkin. Agar sug'urta shartnomasining amal qilish muddati tugagandan keyin, sug'urta hodisasi oqibatida aniqlangan zarar miqdori qayta ko'rib chiqilsa, u holda qayta ko'rilgan zarar ish beruvchi tomonidan qoplab beriladi.

Sug'urta to'lash muddati bir yil davomida bo'lgan hollarda, qoplov summasi sug'urtalovchi tomonidan jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga to'g'ridan to'g'ri to'lanadi.

Yuridik shaxs - ish beruvchi tugatilganda, jismoniy shaxs - ish beruvchi vafot etganda yoki sug'urta shartnomasi amaldagi vaqtda jabrlanuvchi va ish beruvchi o'rtasidagi mehnat munosabatlari to'xtatilganda ham sug'urta tovonini to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi.

Xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning sog'lig'i yomonlashganligi yoki vafot etganligi sababli yuzaga keluvchi qo'shimcha xarajatlar ish beruvchi tomonidan qoplab beriladi.

Sog'liqqa etkazilgan zararining o'rnini qoplash muddati bir yildan ortiq qilib belgilanishi mumkin. Muddat bir yildan ortiq sug'urta to'lovlarini sug'urtalovchi tomonidan ish beruvchiga to'lanadi. Bunda holatlarda ish beruvchi boshqa sug'urtachi bilan annuitetlar shartnomasini tuzadi. Olingan sug'urta tovonidan faqat annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash uchun foydalaniladi. Olingan sug'urta tovonini summasi annuitetlar shartnomasi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti miqdoridan kam bo'lsa, etmaydigan qismi q ish beruvchi hisobidan qo'shimcha ravishda to'lanadi. Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini turlari quyidagi 7-jadvalda keltirilgan.

#### 7-jadval

#### **Annuitetlar shartnomasi bo'yicha joriy to'lovlar tarzidagi sug'urta tovonini turlari<sup>17</sup>**

/r	Annuitetlar shartnomasi bo'yicha joriy sug'urta tovonini to'lovlari turlari	Sug'urta tovonini oluvchi shaxs
	jabrlanuvchining mehnatda mayib bo'lgungacha uning kasb bo'yicha mehnat faoliyati yo'qotilishining tegishli darajasiga ko'ra	jabrlanuvchi

<sup>17</sup> Muallif tomonidan tuzilgan



	o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foizlardagi har oylik to'lovi miqdorida to'lanuvchi qoplov summasi	
	Naf oluvchining o'ziga va uning qaramog'ida bo'lgan, lekin zararni undirish huquqiga ega bo'lmagan mehnatga layoqatli shaxslarga to'g'ri keladigan ulushni chegirgan holda, vafot etgan xodimning o'rtacha oylik ish haqi miqdorida belgilanadi	naf oluvchi

Annuitetlar shartnomasi amal qiladigan davrda joriy sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar soni o'zgarishi mumkin. Bunday hollarda, sug'urta tovonini miqdori joriy sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar o'rtasida qayta taqsimlanadi.

Ayrim sug'urta holatlarida sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar soni va uni olish muddatlari o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Natijada, annuitetlar shartnomasi bo'yicha joriy to'lovlar tarzida sug'urta tovonini miqdori ko'payishi mumkin. Sug'urta tovonining oshgan miqdorini ish beruvchi annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga qo'shimcha ravishda to'laydi.

Joriy sug'urta tovonini to'lovlari annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi tomonidan har oyning 5 kunidan kechikmay annuitetlar shartnomasi tuzish to'g'risidagi arizasida ko'rsatilgan hisob raqamiga o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta ilish bo'yicha sug'urta hodisalarini ko'rib chiqishda dastlab sug'urta tovonini olish uchun ariza va sug'urta hodisasini tasdiqlovchi hujjatlar sug'urtachiga taqdim qilinadi. Sug'urta qoplovini to'lash bir yil muddat ichida belgilansa, sug'urta tovonini sug'urtachi tomonidan jabrlanuvchiga to'lab beriladi. Agar sug'urta tovonini to'lash muddati bir yildan ortiq muddatga tuzilsa, sug'urta tovonini summasi sug'urtachi tomonidan ish beruvchiga to'lab beriladi. Ish beruvchi esa olingan sug'urta tovonini annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtachiga sug'urta muokofoti sifatida to'laydi.

### **III Bob. Ish beruchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash tartibini takomillashtirish**


#### **3.1 O'zbekiston sug'urta bozorida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish natijasi tahlili**

Toshkentda bo'lib o'tgan, VI- xalqaro investitsi forumda 2012 yilda O'zbekiston sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlari ham aytib o'tildi. 2012 yilda O'zbekiston sug'urta bozorida jami bo'lib 285.9 mlrd.so'm sug'urta mukofoti sug'urta tashkilotlari tomonidan yig'ilgan. Sug'urta bozorida jami yig'ilgan sug'urta mukofotlari miqdori 2011 yilga nisbatan ancha miqdorda oshkanligini kuzatamiz. Uning o'sish sur'ati 2011 yilga nisbatan 2.5 %ni tashkil qilgan.1-diagrammaga qarang.

1-diagramma<sup>18</sup>

---

<sup>18</sup> Biznes-vestnik Vostoka, 2013 yil 15 may, №89(1762)



Oxirgi uch yil davomida jamiy yig'ilgan sug'urta mukofotining o'sish sur'ati doimiy o'sib borganligini kuzatamiz. 2010 yilda 1.6%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2011 yilda 2.6%ni tashkil qilgan. Buning asosiy sababi, 2008-2012 yillar davomida respublikamiz sug'urta bozorida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish va shunga o'xshash sug'urtaning boshqa majburiy turlarini kiritilishi sug'urta mukofotining o'sish sur'atini oshishiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston sug'urta bozorida jami to'langan sug'urta qoplamalarining miqdori ham mos ravishda o'sganligini kuzatishimiz mumkin. 8-jadvalga qarang.

**2010-2012 yillarda respublika sug'urta bozorida jami to'langan sug'urta qoplamalari va ularning o'sish sur'ati<sup>19</sup>**  
**8-jadval**

t/r	Sug'urta bozori ko'rsatkichlari	2010 yil	2011 yil	2012 yil
1	Jami to'langan sug'urta qoplamalari, mlrd.so'mda	27.6	45.1	50.5
2	To'langan sug'urta qoplamalarining o'sish sur'ati, %	133.5	163.4	112

<sup>19</sup> Biznes-vestnik Vostoka, 2013 yil 15 may, №89(1762)


Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sug'urta qoplamalarining uch yil davomidagi mutloq va nisbiy miqdorlari ham o'sgan. 2010 yilda sug'urta qoplamasi miqdori 27.6mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2011 yilda ushbu ko'rsatkich 45.1mlrd.so'mni tashkil qilgan. 2012 yilda O'zbekiston sug'urta bozorida jami to'langan sug'urta qoplamasi 50.5 mlrd.so'mni tashkil qilgan.

To'langan sug'urta qoplamasining oxirgi uch yildagi o'sish sur'atini ko'rami. 2010 yilda to'langan sug'urta qoplamasining o'sish sur'ati oldingi hisobot yiliga nisbatan 3.4%ga o'sgan. Ushbu tendentsiya qolgan ikki yil davomida ham kuzatilgan. 2011 yilda sug'urta qoplamasining o'sish sur'ati 6.3%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda ushbu ko'rsatkich 1.2%ni tashkil qilgan. Tabiiy, respublika sug'urta bozorida sug'urta tashkilotlari tmonidan jami olinayotgan sug'urta javobgarligini miqdorini o'sishi, to'lanayotgan sug'urta qoplamalarining o'sish sur'atiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Endi, to'langan sug'urta qoplamalarining o'sish sur'atini 2-digarammada ko'ramiz. 2-diagrammaga qarang.

2-digaramma<sup>20</sup>

---

<sup>20</sup>Biznes-vestnik Vostoka, 2013 yil 15 may, №89(1762)



Respublika sug'urta bozorida jami to'langan sug'urta qoplamalarining o'sish sur'atiga ta'sir qilgan boshqa omillar ham mavjud. Shunday omillardan biri, 2008 yildan respublikamida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini va ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga joriy qilinishi deb, o'ylaymiz. Shuning uchun, O'zbekiston sug'urta bozorida yuz berayotgan o'zgarishlarni to'liq ko'z oldimizga keltirish uchun majburiy va ixtiyoriy sug'urta to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishimiz zarur. Buning uchun sug'urta bozorida o'ta faol bo'lgan 25 ta sug'urta kompaniyalarining sug'urta faoliyatida majburiy sug'urtalash natijalari tahlil uchun olinadi. Bular orasida so'zsiz. Respublikamizning yirik sug'urta tashkilotlari bo'lgan – "O'zbekinvest" EIMSK, "O'zagrosug'urta" DASK, "Kafolat" DASK va boshqarlar. 9-jadvalga qarang.


**Majburiy va ixtiyoriy sug'urta bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotining dinamikasi<sup>21</sup>**  
**9-jadval**

<sup>21</sup>Biznes-vestnik Vostoka, 2013 yil 15 may, №89(1762)

/r	Sug'urta bozori ko'rsatkichlari	2010 yilda	2011 yilda	2012 yilda
	Ixtiyoriy sug'urta, mlrd.so'mda	73.5	111.7	162.6
	Majburiy sug'urta, mlrd.so'mda	39.1	55.8	69.4

O'zbekiston sug'urta bozorida faol bo'lgan 25 ta sug'urta kompaniyalari tomonidan 2010 yilda jami bo'lib 39.1mlrd.so'm, ixtiyoriy sug'urta bo'yicha 73.5mlrd.so'm sug'urta mukofotlari yig'ilgan. 2011 yilda esa majburiy sug'urta turlari bo'yicha 55.8mlrd.so'm , ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha 111.7mlrd.so'm sug'urta mukofotlari yig'ilgan. 2012 yilda majburiy sug'urta turi bo'yicha 69.4mlrd.so'm sug'urta mukofoti yig'ilgan. Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha mazkur yilda 162.6mlrd.so'm sug'urta mukofoti yig'ilishga muvafaq bo'lgan.

Oxirgi yillarda majburiy sug'urta turlarining kiritilishi sug'urta bozori holatiga jiddiy ta'sir qilmoqda. Uning o'sish dinamikasi ta'minlanmoqda. Sug'urta bozorida faol bo'lgan 25 ta sug'urta kompaniyalarining ma'lumotlariga qaraganda, har yili oldingi yilga qaraganda ancha miqdorda o'sish sur'ati taminlanayotganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, majburiy sug'urta turi bo'yicha jami yig'ilgan sug'urta mukofotining 2011 yilga nisbatan o'sish sur'ati 29%ni tashkil qilgan. Chunki 2012 yilda yig'ilgan sug'urta mukofotining miqdori 69.4mlrd.so'mni tashkil qilgan. 3-diagrammaga qarang.



Lekin, majburiy sug'urta turi bo'yicha 2012 yildagi o'sish sur'ati oldingi 2011 va 2010 yillardagiga qaraganda pasayganligini ko'ramiz. Oldingi ikki yil davomida, ushbu ko'rsatkich mos ravishda 34.7%ni va 32.5%ni tashkil qilgan.

Majburiy sug'urta turining yig'ilgan sug'urta mukofotlaridagi ulushning kamayishiga ixtiyoriy sug'urta turini rivojlanishi asosiy sabab bo'lgan.

“O'zagrosug'urta” DASK tomonidan ham ish beruvchining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtalanadi. 2013 yilning birinchi choragida sug'urta tashkiloti tomonidan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha jami bo'lib 1285.5 mln.so'm sug'urta mukofoti yig'ilgan. 2012 yilning birinchi choragida esa ushbu ko'rsatkich 12283.3 mln.so'mni tashkil qilgan. 2013 yilning birinchi choragida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash bo'yicha jami bo'lib 1962 mln.so'm sug'urta qoplamasi to'langan. 2012 yilning birinchi choragida esa ushbu ko'rsatkich 2260.2 mln.so'mni tashkil qilgan. To'langan sug'urta qoplamalarining miqdori

<sup>22</sup> Biznes-vestnik Vostoka, 2013 yil 15 may, №89(1762)

2013 yilning birinchi choragida 2012 yilning birinchi choragiga nisbatan 13.2%ga kamaygan.

Xulosa qilib aytganda, respublikamiz sug'urta bozori asosiy ko'rsatkichlari rivojlanib bormoqda. Sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlariga majburiy sug'urta turlari, jumladan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash natijalari ijobiy ta'sir qilmoqda. Shunga qaramasdan, sh beruvchini fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash tartibini takomillashtirish, talab qilinadi.

### **3.2 Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash muammolari va echimi**

2009 yilning 16 aprelida O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan va hozirgi kunda amalga tadbiiq qilinmoqda. Mazakur Qonunning amalga tadbiiq qilinishi natijasida fuqarolarning ijtimoiy himoya qilishi darajasi yanada oshdi. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashni amalga oshirilishi Hukumatimiz tomonidan fuqarolarni kuchli ishtimoiy himoya qilish borasida olib borayotgan siyosatni samarali bajarilishiga ko'mak bermoqda.

"Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonunni bajarilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi 177 sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari qabul qilindi.

Mazkur me'yoriy hujjatga asosan ish beruvchilarning xodimning mehnat shartnomasi bo'yicha o'z vazifasini bajarishda mayib bo'lishi yoki



sog'lig'ini boshqacha tarzda yo'qotilishi, kasbga oid mehnat qilish layoqtini vaqtincha yoki turg'un yo'qotishi, yoki ish faoliyatini amalga oshirishda vafot etishi bilan bog'liq javobgarligi majburiy sug'urtalanadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalarining 7- bandida sug'urta hodisasi munosabati bilan jabrlanuvchiga (naf oluvchiga) etkazilgan ma'naviy zararlar majburiy sug'urta qilish bo'yicha qoplanmasligi belgilangan.

Ish beruvchining xodimlar oldidagi fuqarolik javobgarligiga ma'naviy zararlar ham kiradi. Aynan, amalda ish beruvchi tomonidan o'z xodimlariga ma'naviy zararlar tekazish holatlari ko'plab uchrashi mumkin. Masalan, xodimning nohaq ishdan bo'shatish, uni haqoratlash, kamsitish. Xodim ish beruvchining aybi bilan ish joyini yo'qotgan hollarda ham o'zoq muddatda daromad manbaasiga ega bo'lmasligi mumkin. Ayrim hollarda bunday holatlar xodimlarni asab kasalliklariga, qandli diabet, yurak kasalliklariga olib kelishi mumkin. Ko'pchilik holatlarda bunday xastaliklar o'lim bilan ham tugashi mumkin.

Ishchini ish beruvchi tomonidan mehnat qilish imkoniyatidan noqonuniy mahrum qilish natijasida ishchi ma'lum vaqt moboynda belgilangan ish haqini olmasligi va doimiy daromaddan mahrum bo'lishi mumkin. Doimiy daromad manbasidan noqonuniy mahrum qilish deganda ish beruvchi tomonidan noqonuniy mehnat shartnomasini bekor qilishi, boshqa ishga o'tkazishi, kelishmovchilikni o'z vaqtida hal qilmaslik holatlari nazarda tutiladi. Bundan tashqari, menat daftarchasini o'z vaqtida bermasligi holatlari ham noqonuniy mahrum qilish deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksida ish beruvchi ishchiga etkaziladigan moddiy va ma'naviy zararlar – uni nohaq ishdan bo'shatilishi bo'yicha fuqarolik javobgarligi o'rnatilgan.

Bunda, ishchiga etkazilgan ma'naviy zarar pul yoki moddiy shaklda to'lab berilishi talab qilinadi.

Ammo sug'urta himoyasiga olinuvchi risklar tarkibida xodimning nohaq ishdan bo'shatilishi sababli moddiy va ma'namiy zarar ko'rishi risklari nazarda tutilmagan.

Shu sababli, nazarimizda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalariga xodimlarga etkazilgan bilvosita zararlar, jumladan moddiy va ma'naviy zararlar qoplanishi to'g'risida o'zgartish kiritisa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Etkazilgan moddiy va ma'naviy zarar sug'urta kompaniya tomonidan to'langandan keyin, to'langan zarar miqdori aybdor ish beruvchidan undirib olinishi zarur.

Ushbu taklifning amalga tadbiiq qilinishi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini oshiradi va fuqarolarni ishtimoiy himoya qilish tizimini yanada mustahkamlashga imkon beradi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tarifining yillik bazaviy stavkasi miqdori 20 ta klasslarga bo'yicha qabul qilingan sug'urta tariflari koeffitsentidan foydalangan holda hisoblanadi. Masalan 01 klass uchun 0.571 belgilangan bo'lib, u 67 ta iqtisodiyotning kichik tarmoqlarini o'z ichiga olgan. Nazarimizda iqtisodiyotning tarmoqlarini 20 ta klasslarga bo'linishida noaniqliklar mavjud. Ya'ni, ayrim klasslar tarkibiga kiruvchi faoliyatlarning risklilik darajasi to'liq inobatga olinmagan. Natijada sug'urta tarifini hisoblashda noreallik yuzaga kelgan. Ushbu muammoni hal qilish uchun, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini sug'urtalashda har- bir korxonaga faoliyatiga xos bo'lgan risklarni olish talab qilinadi. Masalan, Internet, kompyuter tizimida ishlovchi va reklamani yaratuvchi korxonalar uchun bir xil tuzatish koeffitsentidan foydalanish belgilangan.

Ushbu muammoni hal qilish maqsadida quyidagi taklifni amalga tadbiiq qilish tavsiya qilinadi: 01 klass tarkibiga kiruvchi tarmoq korxonalarining o'ziga xos risklarini inobatga olgan holda, belgilangan tuzatish

koeffitsenti meyorida(0.571 meyorida) , joylarda sug'urtachiga koeffitsentni 0.1 dan 0.571 gacha o'zgartirish vakolatini berish maqsadga muvofiq.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash tartibida ish beruvchining quyidagi majburiyatlari belgilangan:

-majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha va ayrim hollarda annuitetlar shartnomasi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan shartlar asosida va tartibda sug'urta mukofotini to'lashi;

-yillik ish haqi miqdori o'zgargan paytdan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda xabar qilishi;

-ish beruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat turlarining xavflilik darajasi o'zgargan paytdan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda bildirishi va zarur bo'lgan hollarda, qo'shimcha hisoblab chiqarilgan sug'urta mukofotini to'lashi;

-xodimlarni majburiy sug'urta qilish shartnomasi shartlari bilan tanishtirishi, shu jumladan, mazkur shartnoma bo'yicha tomonlarning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;

-sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni jabrlanuvchi yoki naf oluvchi yozma shakldagi ariza bilan murojaat qilgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni mobaynida taqdim etishi;

-ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yuz berganligi o'ziga ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda bildirishi;

-agar sug'urta to'voni jabrlanuvchi yoki naf oluvchi tomonidan qilingan suiiste'molliklar oqibatida asossiz ravishda to'langan bo'lsa, ortiqcha to'langan sug'urta to'voni haqida sug'urtalovchiga xabar qilishi va ortiqcha to'langan mablag'larni sug'urtalovchiga qaytarish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'rishi shart.

Ish beruvchining sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlari tarkibiga nazar tashlasak, unda sug'urta hodisasini oldini olish borasida majburiyatlar

belgilanmaganligini ko'ramiz. Shu sababli, ish beruvchining majburiyatlari tarkibiga "ishchilarni texnika xavfsizligi bilan tanishtirish" kabi zaruriy choratadbirni kiritish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tartibi va uni amaliyotga joriy qilishda muammolar ko'p. Muammolar sug'urta shartnomalarini tuzish, sug'urta mukofotlarini hisoblash, sug'urta qoplamalarini belgilash, sug'urta da'volarini ko'rib chiqish jarayonlariga a'loqador.

Yuqorida qilingan takliflarning amalga tadbiiq qilinishi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tartibini takomillashishiga olib keladi deb hisoblaymiz.

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalariga xodimlarga etkazilgan bilvosita zararlar, jumladan moddiy va ma'naviy zararlar qoplanishi to'g'risida o'zgartish kiritsa

Doimiy daromad manbasidan noqonuniy mahrum qilish deganda ish beruvchi tomonidan noqonuniy mehnat shartnomasini bekor qilishi, boshqa ishga o'tkazishi, kelishmovchilikni o'z vaqtida hal qilmaslik holatlari nazarda tutiladi. Bundan tashqari, menat daftarchasini o'z vaqtida bermasligi holatlari ham noqonuniy mahrum qilish deb hisoblanadi.

Shu sababli, nazarimizda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalariga xodimlarga etkazilgan bilvosita zararlar, jumladan moddiy va ma'naviy zararlar qoplanishi to'g'risida o'zgartish kiritsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Etkazilgan moddiy va ma'naviy zarar sug'urta kompaniya tomonidan to'langandan keyin, to'langan zarar miqdori aybdor ish beruvchidan undirib olinishi zarur.

Ushbu muammoni hal qilish maqsadida quyidagi taklifni amalga tadbiiq qilish tavsiya qilinadi: 01 klass tarkibiga kiruvchi tarmoq korxonalarining o'ziga xos risklarini inobatga olgan holda, belgilangan tuzatish koeffitsenti

meyorida(0.571 meyorida) , joylarda sug'urtachiga koeffitsentni 0.1 dan 0.571 gacha o'zgartirish vakolatini berish maqsadga muvofiq.

Shu sababli, ish beruvchining majburiyatlari tarkibiga "ishchilarni texnika xavfsizligi bilan tanishtirish" kabi zaruriy chora-tadbirni kiritish maqsadga muvofiq

## **Xulosa**

Iqtisodiyotdagi strukturaviy o'zgarishlarning yuz berishi, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanib borishi natijasida korxonalar va tashkilotlarining soni ko'paymoqda.

Yangi tarmoqlar, yangi ish beruvchilar, yangi mutaxassisliklarning paydo bo'lishi, mazkur sohada faoliyat yuritayotgan ishchilarning hayoti va sog'lig'iga xavf soluvchi risklarning miqdori va ko'lami ham o'sib bormoqda. Ish beruvchilarning ishchilar oldidagi fuqarolik javobgarligi o'sib borishi, ishchi va xodimlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalasini dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Bir vaqtda ish beruvchini moddiy va mehnat resurslarini makro va mikro iqtisodiy darajada himoya qilish vazifasi ham dozarb bo'lib qolmoqda.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish mamlakatda ijtimoiy ishlab chiqarishni barqarorlashtirishni, biznesni va aholini turmush darajasini himoya qilish asosiy vositasi hisoblanadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash mamlakatda iqtisodiy progressni va ishlab chiqarish faolligini qo'llab-quvvatlash asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bilvosita yuridik shaxslarni ularga tegishli bo'lgan mol –mulklarni va moliyaviy natijasini himoya qiladi.

Himoya vositasini ta'minlash orqali, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish mamlakatda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish mexanizmini takomillashishiga va ijtimoiy holatni yaxshilanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Ish beruvchilar to'lashi zarur bo'lgan zararni qoplashda yordam berib, ularni moliyaviy ahvolini barqaror bo'lishiga va mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikga kelishiga yaqindan yordam beradi.

Ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta munosabatlarining paydo bo'lishini qonuniy asoslari mavjud. Ish beruvchi o'z xodimi oldida qonuniy fuqarolik javobgarligi mavjud. Ish beruvchining ishchi oldidagi fuqarolik javobgarligi O'zbekiston Respublikasi

Mehnat kodeksida belgilangan. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta munosabatlari sug'urta mukofotlari hisobidan majburiy sug'urta fondlarini tashkil qilish va fond mablag'laridan foydalanish jarayonida yuzaga keladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash jarayoni sug'urta shartnomasini tuzishdan boshlanadi. Sug'urta shartnomasida tomonlarning huquq va majburiyatlari, shartnomaning muhim elementlari aks etadi. Sug'urta shartnomalari asosida sug'urta polisi rasmiylashtiriladi. Qoplov puli bir yildan ortiq muddatni tashkil qilgan hollarda annuitetlar shartnomasi tuziladi. Sug'urta mukofotlari va summasi ham sug'urta shartnomasida belgilanadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta summalari korxonalarda ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha ish haqining miqdoriga, ishga qachon kirganligiga ko'proq bog'liq. Sug'urta tariflarini hisoblashda yillik bazaviy tarif belgilanib, unga ish beruvchining ish faoliyati xavflilik darajasiga qarab koeffitsentlar ko'paytiriladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tartibini takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif qilinmoqda.

1. Sug'urta himoyasiga olinuvchi risklar tarkibida quyidagi risklardan yuzaga keluvchi javobgarliklarni kirtish:

- asossiz ishchini ishdan bo'shatish bilan bog'liq javobgarlik;

- xodimni majburiy tarzda boshqa ishga o'tkizish bilan bog'liq ish beruvchining javobgarligi;

- ishchining ishdan bo'shagandan keyin, o'z vaqtida mehnat daftarchasini berish javobgarligi;

2. Ma'naviy zararlarni qoplab, berish va quyidagi risklar bo'yicha yuzagakeluvchi javobgarliklarni sug'urta himoyasiga olish:

- xodimni haqoratlash bilan bog'liq zararlarni bo'yicha javobgarlik.

3. Ish beruvchi tomonidan ishchiga etkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarni pul vositasida qoplash.

4. Etkazilgan moddiy va ma'naviy zarar sug'urta kompaniya tomonidan to'langandan keyin, to'langan zarar miqdori aybdor ish beruvchidan undirib olinish.

5. sug'urta tariflarini belgilashda sug'urtachiga chegaralangan erkinlik berish. Ya'ni faoliyat turining xavflilik darajasiga qarab, belgilangan koeffitsentga, chegaralangan me'yorda o'zgartirish kiritish.

6. Ish beruvchining shartnomaviy majburiyatlari tarkibiga "ishchilarni texnika xavsizligi bilan tanishtirish" mazmunidagi majburiyatni kiritish.

Yuqorida qilingan takliflarning amalga tadbiiq qilinishi ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish mexanizmini takomillashishiga olib keladi. Majburiy sug'urtani amalga tadbiiq qilinishidagi yuzaga keluvchi muammolarni hal qilinishida, ishchilarning qonuniy huquqlarini mustahkam himoya qilinishida, ijtimoiy himoyani mustahkamlanishida xizmat qiladi.



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

### **I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1994.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2003.-496 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida».-T.: 2002 yil 5 aprel. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 28 may.
4. O'zbekiston Respublikasining «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi Qonuni. Xalq so'zi, 2008 yil 21 aprel.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 31 yanvardagi «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3022-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 286-sonli Qarori. 1998 yil 8 iyul.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida»gi 113-sonli Qarori. 1997 yil 28 fevral.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 618-sonli Qarori. «Bank axborotnomasi» 2007 yil 6 iyun.

10.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi 177-sonli Qarori.

11.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 28 dekabrdaqi №321-sonli Qarori "Davlat sud ekspertlarining hayoti va sog'ligini davlat tomonidan majburiy sug'urta qilish to'g'ridagi Nizomni tasdiqlash haqida.

12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 mayda "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №872-sonli Qarori.

13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdaqi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli Qarori.

14.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.T:O'zbekiston, 2009.56 b.

15.Karimov I.A. Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish.T.:O'zbekiston, 2009 yil 24b.

16.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimiz. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi, 2010 yil 27 yanvar.

17.Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 17.01.2011y.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-mqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 17.01.2012y.

19. Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni -iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 18.01.2013 y.

## **II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar**

20. Ardatova M.M., Bolinova V.S., Kulinova A.B., Yablukova R.Z. Straxovanie: Uchebnoe posobie.-M.: Prospekt, 2006.
21. Straxovanie. Pod redaksiyey prof. T.A. Fedorovoy. Uchebnik.-M.: Magistr, 2008 g.
22. Abramov V. Yu. Straxovanie: teoriya i praktika.-M.; Volster Kluver, 2007.
23. A.I. Lukinov «Osnovnie napravleniya razvitiya straxovogo rinka Germanii v nachale XXI veka», Jurnal Straxovoe Delo, fevral 2003g.
24. Gushshchenko N.B. Osnovi straxovoy deyatelnosti: Uchebnoe posobie.-M.: Finansi i statistika, 2006.
25. Yuldashev R.T. Straxovoy biznes : Slovar-spravochnik R.T. Yuldashev – M., Ankel, 2005.
26. Nor-Arevyan O. Sotsialnoe straxovanie. Uchebnik dlya vuzov- M.: Dashkov i K., 2011
27. Ermasov S.V. Straxovanie.. Uchebnik dlya vuzov – M.: Yurayt., 2011
28. Pod redaksiyey L.A. Orlanyuk-Malitskoy Straxovanie. -M.: -Yurayt, 2011
29. Nikulina N.N. Straxovoy menedjment.-YuNITI, 2011
30. Yu. T. Axvlediani. Straxovanie vneshneekonomicheskoy deyatelnosti. Uchebnoe posobie dlya vuzov.- M.: Yuniti, 2010g.
31. Igoshin N.A. Straxovoe pravo. Uchebnoe posobie. - M.: Yuniti. 2010
32. Xo'jaev Y. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urta. O'quv qo'llanma.-T.: Soliq akademiyasi, 2005.
33. Shennaev X.M., Sug'urta agentlari uchun qo'llanma. O'quv qo'llanma.-T.: info COM.UZMChJ nashriyoti, 2010y.
34. Shennaev X.M., Kenjaev I.G'. Chet mamlakatlar sug'urtasi. O'quv

qo'llanma. T.,2012.

35.Shennaev X.M., Xalikulova G.T., Tashqi iqtisodi faoliyatda sug'urta. O'quv qo'llanma. T.,2012.

36. Shennaev X.M., Xalikulova G.T., Sug'urta marketingi. O'quv qo'llanma. T.,2012.

37.Shennaev X.M., O'zbekiston sug'urta bozori. O'quv qo'llanma. T.,2013y.

### **III.Davriy nashrlar, statistik to'plamlari va hisobotlar.**

38.Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda soliq tizimining rolini oshirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruza tezislarini to'plami. Toshkent-2011.

39.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashda soliq siyosatining o'rnini va ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. Toshkent-2011.

40.“Yosh olimlar va talabalar tadqiqotlarida soliq tizimini isloh qilishning ilmiy asoslari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi. Soliq akademiyasi, 2012 yil 27 aprel

41.“O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi, Toshkent moliya instituti, 2012 yil 28 fevral.

42.“Iqtisodiyot nazariyasi muammolari:talqini va echimlari” mavzusidagi Respublika Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent moliya instituti, 2013 yil 17 may.

43.Ekonomicheskoe obozrenie.// № 3 (160), 2013, 96-101 betlar

44.Biznes-vestnik Vostoka./ 15-16 may, 2013, 1,2,3 betlar

#### **IV. Internet saytlari**

45. [www.mf.uz](http://www.mf.uz).
46. [www.sug'urta.uz](http://www.sug'urta.uz).
47. [www.UzReport.com](http://www.UzReport.com).
48. [www.uzbekinvest.uz](http://www.uzbekinvest.uz).
49. [www.agros.uz](http://www.agros.uz).
50. [www.kafolat.uz](http://www.kafolat.uz).
51. [www.kapitalsug'urta.uz](http://www.kapitalsug'urta.uz).
52. [www.alskom.uz](http://www.alskom.uz).
53. [www.allinsurance.ru](http://www.allinsurance.ru).
54. [www.expert.ru](http://www.expert.ru).
55. [www.znay.ru](http://www.znay.ru).